O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI QIZIRIQ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

190800, Qiziriq tumani, Ibn-Sino ko`chasi, 13-uy, tel:0(376)3591339, fax: 0(376)3591575, qiziriq_t1@exat.uz

2023 - yil 9 - oktabr 153-8-113-Q/23 Qiziriq tuman hokimligi

2024-yilda Qiziriq tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash to’g’risida

O’zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to’g’risida”gi Qonunining 39-moddasi hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5-dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo’yish tartibi to’g’risida”gi Nizomning 10-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Tumandagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar xodimlarning ro’yxatdagi o’rtacha soni 20 nafardan ortiqni tashkil etadigan tashkilotlar sonidan kelib chiqib, avvaldan ushbu toifadagi ishga qabul qilingan shaxslarni hisobga olgan holda Qiziriq tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun 135 ta ish o’rinlari band qilinganligi

jumladan:

o’n to’rt yoshgacha bolalari bo’lgan va nogiron bolalari bo’lgan yolg’iz va ko’p bolali ota-onalar uchun 44.4 foiz (60 kishi);

umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari

bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun 38.6 foiz (52 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o’tagan va O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar uchun 2.2 foiz (3 kishi);

nogironlar uchun 8.1 foiz (11kishi);

pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 1.5 foiz (2 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko’ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo’llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 3.0 foiz (4 kishi);

odam savdosi qurbonlari uchun 0.7 foiz (1 kishi);

Atrofdagilar uchun xavf tug’dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun 1.5 foiz (2 kishi) miqdorida ish o’rinlari zahirasi korxona va tashkilotlar kesimida belgilanganligi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Ijtimoiy muxofazaga muhtoj shaxslarning ko’rsatib o’tilgan toifalari uchun ish o’rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o’z mehnat majburiyatlarini to’siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq tashkil etilsin.

3. 2024-yilda Qiziriq tumanida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish bo’yicha korxona va tashkilotlar kesimida ish o’rinlarini tashkil etish ro’yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ilovada ko’rsatilgan korxona va tashkilotlar rahbarlari belgilangan ish o’rinlarini tashkil etilishini to’liq ta’minlasin.

5. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o’rinlarining eng kam sonini belgilash bo’yicha ushbu qarorni bajarmagan, shuningdek, ularni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etgan korxona va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

6. Ish o’rinlarini band qilib qo’yish sonidan ortiqcha ish o’rinlari tashkil etgan korxona va tashkilotlar uchun O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2019 yil 31 may kuni 3163-son bilan ro’yxatdan o’takzilgan O’zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining 2019 yil

10 maydagi “O’zbekiston Respublikasi Bandlikka ko’maklashish davlat jamg’armasi mablag’lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to’g’risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B-sonli buyrug’iga asosan belgilangan tartibda kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslar uchun har bir xodimga 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida subsidiya to’lab berilishi belgilab qo’yilsin.

7. Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi (Z.G‘apparov) besh kun muddatda ushbu qarorning 1-bandida ko’rsatilgan tashkilotlar rahbarlarining e’tiboriga yetkazsin va ushbu qaror bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

8. Qiziriq tuman hokimining 2022 yil 6 oktyabrdagi 346-8-113-Q/21-son qarori mazkur qaror kuchga kirganidan so‘ng bekor qilinsin.

9. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab uch oydan so’ng kuchga kirishi belgilansin.

10. Ushbu qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o’rinbosari U.Panjiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Sh.A.Rajabov**

Qiziriq tuman hokimining
2023-yil 9-oktabrdagi
153-8-113-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo‘yicha komissiya

TARKIBI

U.Panjiyev	-	Tuman hokimining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, xizmatlar sohasi va tadbirkorlik masalalari bo‘yicha o‘rinbosari, Ishchi komissiya raisi
Z.G'apparov	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi komissiya raisining o‘rinbosari

A’ZOLARI

O.Xaydarqulova	-	Tuman hokimining oila va xotin-qizlar o‘rinbosari
Z.Raxmatov	-	Tuman hokimining yoshlar masalalari bo‘yicha o‘rinbosari
F.Xo'janov	-	Tuman Statistika bo‘limi boshlig‘i
X.Qurbonov	-	Tuman Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi raisi
X.Boboqulova	-	Tuman Maktab va maktabgacha ta’lim bo‘limi boshlog‘i
O’.Maxmadiyorov	-	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limining Ishga joylashtirish va ishsizlarni hisobga olish bo‘yicha bek ofis bosh mutaxassisi, Ishchi komissiya kotibi

Izoh: komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Qiziriq tuman hokimining
2023-yil 9-oktabrdagi
153-8-113-Q/23-son qaroriga
2-ilova

2024 yilda Qiziriq tumani bo’yicha ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun band qilib qo’yilgan ish o’rinlari to’g’risida MA'LUMOT

Ijtimoiy muxofazaga muxtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o’rinlarini belgilash taklif etilayotgan korxona va tashkilotlar ro’yxati (korxona va tashkilotlarning nomi)	Shtat jadvali bo’yicha xodimlarining umumiy soni	Kelgusi yilga zaxiraga qo’yish taklif etilayotgan ish o’rinlari soni	shu jumladan:							
			14 yoshgacha va nogiron bolalari bo’lgan yolg’iz va ko’p bolali ota-onalar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Umumiy o’rta ta’lim va o’rta-maxsus kasb-xunar ta’limi va Oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Safarbarlik chaqiriq zaxirasida xizmatni o’tagan va O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Nogironligi bo’lgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko’ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo’llanilgan shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Odam savdosi qurbonlari uchun band qilingan ish o’rinlari soni	Atrofdagilar uchun xavf tug’dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun band qilingan ish o’rinlari soni

OOO SURXON COTTON TEXTILE CLUSTER MCHJ	4591	43	27	10		2	1	2	1	
Veterinariya bo’limi	29	2		1	1					
Qiziriq O’rmon xo’jaligi	51	4	1	1		1				1
Qiziriq tuman Irigassiya bulimi	39	3	2	1						
Qiziriq YXTPTFK	65	3	1	2						
Obodonlashtirish bo’limi	163	12	6	4		1		1		
Qiziriq tuman Tibbiyot birlashmasi	1480	28	12	12	1	2				1
Sanitariya epedimiologik osoyishtalik markazi	63	3	1	1			1			
Qiziriq invest MCHJ	40	4	1	1	1			1		
Barkamol avlod bolalar maktabi	70	1		1						
TOShKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI TERMIZ FILIALI HUZURIDA AKADEMIK LITSEY	49	2		1		1				
12-sonli bolalar musiqa va san’at maktabi	51	1		1						

1-bolalar va o'smirlar sport maktabi	51	1	1							
Qiziriq tuman Madaniyat ishlari bo’limi	43	3	1	2						
1-sonli Kasb-hunar maktabi	88	2	1			1				
Qiziriq kasb-hunarga o’qitish markazi	57	2	1	1						
Qiziriq Pedogogika kolleji	35	1				1				
Qiziriq tuman Maktab va maktabgacha ta'limi bo’limi	66	3	1	1		1				
Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi Qiziriq tuman ixtisoslashtirilgan maktab davlat muassasasi	52	2	1	1						
1-umumiy o'rta ta'lim maktabi	72	1		1						
2-umumiy o'rta ta'lim maktabi	112	1		1						
3-umumiy o'rta ta'lim maktabi	66	1		1						
13-umumiy o'rta ta'lim maktabi	61	1		1						
14-umumiy o'rta ta'lim maktabi	75	1	1							
23-umumiy o'rta ta'lim maktabi	52	1	1							

35-umumiy o'rta ta'lim maktabi	47	1		1						
36-umumiy o'rta ta'lim maktabi	107	1	1							
48-umumiy o'rta ta'lim maktabi	30	1		1						
49-umumiy o'rta ta'lim maktabi	37	1		1						
13-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	30	1		1						
14-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	26	1				1				
21-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	29	1		1						
22-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	31	1		1						
23-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti	33	1		1						
	7827	**135**	**60**	**52**	**3**	**11**	**2**	**4**	**1**	**2**